



**Toshkent viloyati, Chirchiq shahar XTMFMT va
TEB tasarrufidagi
21- umumta'lim maktabining
informatika fani o'qituvchisi
Asadov Laziz Nekovich**

Mavzu: Web-sahifada «o'tish» (gipermurojaat)
O'quvchilar soni: 16-18 ta

Annotatsiya

Ushbu dars ishlanmasi 9-sinflarga mo'ljallangan bo'lib, dars jarayonida o'quvchilar saytlarda ishlashni, bir sahifadan ikkinchi sahifaga hamda saytlardagi rasmlar, matnlar, elektron pochta orqali "gipermurojaat" qilishni o'rganishadi.

Assalomy alaykum hurmatli o`quvchilar! Biz sizlar bilan hozir o`tadigan darsimizni onlayn tarzida tashkil etamiz .

Fan: Informatika **sinf:** 9^a

Bugungi sana: 27.04.2016 yil

**Bugun o`tiladigan mavzumiz:** Web-sahifada «o`tish»(gipermurojaat)

Darsning maqsadi:

**a) Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarga o`tish tashkil etishda qo`llaniladigan deskriptorlar va ularning qo`llanilishi haqida ma'lumot berish;

b) Darsning tarbiyaviy maqsadi: O`quvchilarga estetik va axloqiy tarbiya berish;

c) Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O`quvchilarda web-sahifalarda o`tishlar tashkil etish ko`nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: Aralash(amaliyot bilan birgalikda)

Darsning jihozlari: doska,bo`r,AKT vositalari,tarqatma materallar:

Darsda q`llaniladigan metod va usullar: “Muzyorar”, “Aqliy hujum”, “Romashka”, “T-chizma”:

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

c) O`quvchilarning va sinfnig darsga tayyorgarligini tekshirish


II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash:

-Biz siz bilan o`tgan darsda qaysi mavzu bilan tanishgan edik. **“Web-sahifaga ro`yhat va jadval joylashtirish”** mavzusini takrorlagan edik.O`tilgan mavzular bo`yicha olgan bilimlaringizni tekshirish uchun,quyidagi **“Romashka”** metodidan foydalanamiz, buning uchun o`quvchilarni 2 ta guruhga bo`lamiz.Guruhga ajratish uchun **“Molekulalar”** metodidan foydalanamiz. Bunda o`qituvchi harakatlar tartibini tushuntiradi: “Tasavvur qiling, hammamiz tartibsiz harakat qilayotgan ba`zan molekulalarga birlashib turli tomonlarga tarqaladigan va bitta hujayra organizmda to`planadigan atomlarmiz... Hozir musiqa yangraydi, hammamiz atomlar singari tartibsiz harakatlana boshlaymiz. Keyin men birorta son aytaman va siz unga ko`ra molekula hosil qilasiz, ya`ni shuncha atom bo`ladi. O`qituvchi: “2 ta

atom”, keyin “8 ta molekula” – deydi. Shunday qilib ishtirokchilar 2 guruhga bo’linadilar. Joylariga o’tirib guruhlarga nom beradilar. O’qituvchi shartlarni tushunturadi. Shartlar quyidagicha, har bir o’quvchi ko’rgazmali qurolidagi konvertlardan savollarni olib unga tezda javob berib maxsus joylariga joylashtiradilar. Agar savollarga javob bera olishmasa maxsus joyga joylashtirilmaydi. Bir vaqtning o’zida ikkita guruh navbatma-navbat savollarga javob berishadi. To’liq savollarga javob bergan guruh g’olib deb topiladi. (2-rasm).



1-rasm



2-rasm

Savollar:

1. Web-sahifada jadval kiritish uchun qaysi tegdan foydalaniladi?
2. Web-sahifada jadval satrini kiritish uchun qaysi tegdan foydalaniladi?
3. Jadval sarlavha satri kiritish uchun qaysi tegdan foydalaniladi?
4. Border parametri nima vazifani bajaradi ?
5. Caption nima vazifani bajaradi ?
6. Cellspacing parametri nima vazifani bajaradi ?
7. Bordercolor parametri nima vazifani bajaradi ?
8. Colspan va Rowspan nima vazifani bajaradi ?

III. Yangi mavzuning bayoni:


Web-sahifadagi axborot bir nechta bo’limdan iborat bo’lishi mumkin. Bu bo’limlarga tez “o’tish” imkoniyati web-sahifani ko’rib chiqishni osonlashtiradi. Web-sahifada bunday o’tishlar gipermatnli aloqani tashkil etadi. Gipermatn texnologiyasi o’z vaqtida WWW xizmatining o’z fursatda ommaviylashishiga sabab bo’lgan edi.

Gipermurojaat, ya’ni hujjatning bir joyidan boshqa joyiga yoki bir hujjatdan boshqa hujjatga o’tish, **<A>** juft tegi yordamida amalga oshiriladi. Bu tegning **HREF** parametri bor bo’lib, uning qiymati o’tish joyi manzili (adresi) bo’ladi. Web-sahifaning mazkur


teg yozilgan joyi **o'tish nuqtasi** deyiladi. **<A>** tegi parametri bilan umumiy holda quyidagicha yoziladi:

** matn ** ,

bu yerda “matn” – ixtiyoriy matn bo'lib, brauzer uni ekranda belgilab ko'rsatadi, “manzil” – o'tish kerak bo'lgan joy (bo'lim) manzili. Odatda o'tish joyini aniqlovchi matn ekranga ko'k rangda va tagiga chizilgan ko'rinishda chiqadi. Manzil ham ixtiyoriy matn bo'lishi mumkin. Web-sahifaning o'tish kerak bo'lgan joyiga **<A>** tegining **NAME** parametri yordamida “manzil” kiritiladi. U o'tish nuqtasidagi “manzil” bilan bir xil bo'lishi kerak. Bu teg NAME parametri bilan birgalikda umumiy holda quyidagi ko'rinishda yoziladi:



Web-sahifada o'tish nuqtasi boshqa matnlardan “ajralib” turishi uchun, uni ro'yxat tarkibiga kiritish ham mumkin. Gipermurojaat web-sahifada o'tish nuqtasida berilgan matnga sichqoncha parametrini olib kelib, sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Bu holda o'tish nuqtasidagi matn rangi o'zgaradi (odatda pushti rangga bo'yaladi).



Gipermurojaat o'tish nuqtasidagi matn o'rniga yoki matn bilan birga rasm ham qo'yish mumkin. Buning uchun o'tish nuqtasidagi matn o'rniga **** tegi ishlatiladi. Mazkur teg yordamida qo'yilgan rasmni brauzer avtomatik ravishda o'tish buyrug'i bilan bog'laydi. Endi web-sahifada “o'tish” uchun matndan ham, rasmdan ham foydalansa bo'ladi. Masalan, HTML-hujjatga

yozuvi kiritilsa, web-sahifada “mypic.jpg” rasm orqali “1-bob”ga o'tish mumkin bo'ladi. **<A>** tegi yordamida nafaqat bitta web-sahifa ichida, balki bir web-sahifadan boshqa web-sahifalarga o'tishni ham amalga oshirish mumkin. Buning uchun mazkur

tegdaqi “manzil” sifatida Internet tizimidagi biror web-sahifa manzilini, ya’ni URL-manzilni yozish kifoya. Masalan,

<A> HREF=“ <http://akt.uzedu.uz/Home/mtest/1>” o’tishga

<A> tegi yordamida elektron pochtaga ham ma’lumot yuborishni tashkil etish mumkin. Buning uchun pochta adresidan avval **mailto** (pochtaga) so’zi yoziladi, masalan: <A HREF=“<mailto:laziz79.79@mail.ru>”> Fikr va mulohazalaringizni yuboring . Bu gipermurojaat ko’rinishidan boshqalaridan farq qilmaydi. Agar sichqoncha ko’rsatkichi gipermurojaatga yo’naltirilsa, holat satrida elektron pochta adresi aks etadi:



Lekin, bu adresga murojaat etilganda (Internet tarmog’ida ishlayotgan bo’lsangiz) web-brauzer elektron pochta bilan ishlash uchun o’z oynasini ochadi. Aks holda “**Subjekt**” satrni to’ldirishni eslatadi.

IV.Mustahkamlash.

Mashqlar: № - ____: Amaliy ish

“Web-sahifada gipermurojaat”

```
<html> <h2 align="center">Web-sahifaga gipermurojaat</h2>
```

```
<ul> <li><a href="#1-bob">I-BOB</a></li> <li><a href="#2-bob">II-BOB</a></li>
<li><a href="#3-bob">III-BOB</a></li> </ul>
```

```
<br><br><br><br><br><br><p> <h2><a name="1-bob">I-BOB ALGARITMLASH
ASOSLARI</a></a> <p> Inson amaliy ish jarayonida juda ko’p masalalarni hal
etishiga to’g’ri keladi. Masalalarning ba’zilari oson, ba’zilari murakkab hisob-kitob
bilan bog’liq bo’ladi. </p> <br><br><br><br><br><br><p>
```

```
<h2><a name="2-bob">II-BOB DASTURLASH ASOSLARI</a></a> <p> 1981-
yilda Pascal tilining xalqaro standarti taklif etildi. Pascal tilining Borland firmasi
tomonidan ishlab chiqilgan Turbo Pascal 7.1 naqlidan hozirgi davrda keng
foydalaniladi.
```

```
</p> <br><br><br><br><br><br><p>
```

```
<h2><a name="3-bob">III-BOB Web-sahifa tayyorlash</a></a>
```

<p> Web-sahifadagi axborot bir nechta bo'limdan iborat bo'lishi mumkin. Bu bo'limlarga tez "o'tish" imkoniyati web-sahifani ko'rib chiqishni osonlashtiradi. </p>

 </html>

O'quvchilar amaliy ishni bajarib bo'lgandan so'ng ,joylariga otirib.Qo'ydagi topshriqni bajarishadi.

T-chizma usulidan foydalanamiz.

Web-sahifada o'tish ya'ni gipermurojaat mavzusini mustahkamlash doir:

Bu usulda o`quvchilar o`z fikr- mulohazalarini bildirishadi,ya'ni quyida berilgan fikrga qo`shilsalar **“Ha”** tomonga, qo`shilmasalar **“Yoq”** tomonga **“+”** belgi qo'yishadi va fikrlarini bayon etadilar.

Ha		Savollar		Yo'q
		1		
		2		
		3		
		4		
		5		
		6		
		7		
		8		

Savollar:

1. Gipermurojaat <a> juft tegi yordamida amalga oshiriladi.
2. Gipermurojaat rasml ham bo'lishi mumkin.
3. Saytlar nomini gipermurojaatga kiritib bo'lmaydi.
4. Elektron pochtaga **mailto:** orqali murojaat qilinadi.
5. Gipermurojaatda URL-manzil yozib bo'lmaydi.
6. <a href=<http://rambler.ru/>> bu gipermurojaat rambler.ru saytiga berilgan.
7. URL-manzilga **mailto:** orqali murojaat qilinadi.
8. URL-manzilga Pascal asos solgan.

V.Darsning yakunlash va o`quvchilarni baholash.

VI. Uyga vazifa:Mavzuni o`rganish. 1-5-savollarga javob yozib kelish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Rashidov, X. Xabib, G. Eldasheva, A. Zakirov, “Kasbiy pedagogika” blokini o`qitish metodikasi. “O'MKHTTKMO va UQTU” bosmaxonasi, 2007yil.
2. B. J. Boltayev, A.R. Azamov, A. D. Asqarov, M.Q.Sodiqov, G.A. Azamatov “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari”. Cho'lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi Toshkent-2011.
3. <http://uzedu.uz/>: <http://chir21-maktab.uz>